

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

UMAROVA GULANDOM TUMANOVNA

**MINTAQA AHOLISI BANDLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doktor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Umarova Gulandom Tumanovna

Mintaqa aholisi bandligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari (Samarqand viloyati misolida).....

Умарова Гуландом Тумановна

Приоритетные направления повышения занятости населения в регионе (на примере Самаркандской области).....

Umarova Gulandom Tumanovna

Priority directions for increasing employment of the population in the region (on the example of Samarkand region).....

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

UMAROVA GULANDOM TUMANOVNA

**MINTAQA AHOLISI BANDLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI
(Samarqand viloyati misolida)**

08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3878 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxliyev Nurislom

iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Rasmiy opponentlar:

Ro‘zmetov Baxtiyar

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Narmanov Ulug‘bek Abdugapporovich

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mehnat bozori tadqiqotlari instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “___” _____ kuni, soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy, Tel: (99871) 227-12-24; faks: (99871)246-90-80, e-mail:rector@nuu.uz

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (186-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy, Tel.: (99871) 227-12-24, 246-02-24; faks: (99871) 246-90-80, e-mail:rector@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil ___-dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil ___-dekabrdagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

X.P. Abulkasimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Q.Q. Mambetjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.V. Vaxabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi globallashuv jarayonlari va u bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar aholining ish bilan bandligi bo‘yicha mintaqaviy tafovutlarni, ba’zi mintaqalarda ishchi kuchi tanqisligi, boshqalarida esa, yuqori ishsizlikni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotida “...dunyoda 3,4 milliard kishi ish bilan band, ularning soni yiliga tahminan 35 millionga oshishi mumkin, mehnatga layoqatli aholi tarkibida ish bilan bandlik darajasi ayollarda 45,6 foizni, erkaklarda esa 69,2 foizni tashkil etadi. Ish bilan band bo‘lmagan, lekin ishlashni xohlovchi aholi soni 402 million kishidan iborat bo‘lib, deyarli 2 milliard aholi norasmiy sektorda band”¹, ekanligi aytilgan. Bu jahon aholisining hattoki yarmi ham band emasligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, mazkur muammoni hal qilishning birdan bir yo‘li yangi zamonaviy ish o‘rinlarini yaratishdan iboratligini davr talabiga aylantirmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholi ish bilan bandligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etish masalasi global muammo sifatida o‘rganilmoqda. Jumladan, mehnat bozoridagi o‘zgarishlar, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat bozori egiluvchanligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda unga bo‘lgan talab va taklifga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mintaqada aholi ish bilan bandligini oshirish nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ijtimoiy barqarorlik, yangi ish imkoniyatlarini yaratish va aholining turmush darajasini yaxshilanishiga xizmat qilishi nuqtai nazaridan samarali bandlikni oshirish yo‘llari va usullarini tadqiq etish masalalari ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida “...mehnatga layoqatli aholi, shu jumladan, yoshlar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning barqaror va samarali bandligini ta’minlash muammolarini hal etishga erishish”², ularning ishsizlik darajasini 2030–yilga qadar 14 foizdan 11 foizga kamaytirish masalalariga alohida etibor qaratilmoqda. Ammo, aholi bandligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishiga qaramasdan, ish bilan bandlikni ta’minlanishni hududlar darajasida qoniqarli deb e’tirof etish qiyin. Jumladan, Samarqand viloyatida iqtisodiyot sohalarining notekis rivojlanishi, shahar va qishloq hududlari o‘rtasida ish o‘rinlari taqsimotidagi yirik tafovutlarning mavjudligi, mintaqa iqtisodiyotida innovatsion va raqamli texnologiyalar rivojlanishining sekin sur’atlarda kechayotganligi, iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratishda to‘siqlarning vujudga kelayotganligi sababli “Samarqand viloyatida 2022–2026 - yillarda aholi bandlik darajasini oshirish maqsadida 116,0 mingta ish o‘rinlarini yaratish, ishsizlik darajasini 9,7 foizdan 9,0 foizga tushirish”³ vazifalarining belgilanishi mintaqada yangi ish o‘rinlarini yaratish, shu bilan bandlikning zamonaviy turlarini rivojlantirish masalasini hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

¹ Worl Employment and Social Outlooc Trends 2023. International Labour Office. Geneva 2023. P 90

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi qarori // <https://lex.uz/docs/6600413>

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 29-apreldagi 22-son “2022–2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori // <https://lex.uz/docs/5989312>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–yil 26-martdagi PF-5975-sonli “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022–yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023–yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030”strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2020–yil 1-maydagi PQ-4702-son “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida”, 2020–yil 11-avgustdagi PQ-4804-son “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalari ijrosini ta‘minlashda, shuningdek, mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aholi bandligi va unga xos bo‘lgan muammolar, mehnat bozori shakllanishi, bozori iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar iqtisodchi olimlari tomonidan keng miqyosda o‘rganilgan. Ular orasida J. Keyns, A. Marshall, M. Fridmen, R. Makkonell, A. Smit, D. Rikardo kabilarning tadqiqotlari bandlik nazariyasining shakllanishida katta ahmiyat kasb etadi⁴. Xorijiy olimlar D. Devins, T. Hogart, Ch. Bettiy, T. Bodiylar tadqiqotlari esa bandlik nazariyalarining tahliliga bag‘ishlangan⁵. Mintaqa aholisi bandligiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘plab MDH davlatlari mutaxassis va olimlarining ham tadqiqot predmetini tashkil etadi. Jumladan, N.A.Gorelov, D.N.Karpuxin, I.S.Maslova, A.A.Nikiforova, N.M.Tokarskiylar mintaqadagi mehnat resurslari va ishchi kuchi bozorining shakllanishini o‘rgangan, Ye.A. Kolesnik, A.S. Merenkova, Y.G. Odegov, E. Karaarslan, K. Yildirim kabi olimlar mintaqqa aholisi bandligiga ta‘sir etuvchi omillar va ularning xususiyatlarini tadqiq etgan⁶.

Respublikada bu sohada Q.X.Abdurahmonov, G.Q.Abduraxmonova, A.A.Vaxabov, A.M.Sodiqov, B.Ro‘zimetov, F.T.Egamberdiyev, H.P.Abulqosimov, A.A.Soliyev,

⁴Keyns J.M. The general theory of employment, interest, and money. – Springer, 2018. – 404 p.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 p.; Friedman M. Theory of the consumption function. – Princeton university press, 2018. – 258 p. Макконелл К.Р., Брю С.Л Экономика: принципы, проблемы и политика. – М.: 1999. – С.974 г., Smith A. The Wealth of Nations. – Aegitas, 2016. – 685 p,

⁵ Devins D., Hogarth T. Employing the unemployed: Some case study evidence on the role and practice of employers //Employability and Local Labour Markets. – Routledge, 2013. – С. 52-63., Beatty C., Fothergill S., Macmillan R. A theory of employment, unemployment and sickness //Regional studies. – 2000. – Т. 34. – №. 7. – С. 617-630.

⁶ Горелов Н. А. Экономика трудовых ресурсов: учебное пособие. – Высш. шк., – М.:1989., Карпухин Д. Н., Маслова И. Формирование и эффективное использование трудового потенциала //Вопросы экономики. – 1998. – №. 6. – С. 93-103., Никифорова А. А. Рынок труда: занятость и безработица. – Междунар. отношения, 1991., Токарский Б. Л. Формирование рынка рабочей силы в крупных промышленных центрах. – Изд-во Санкт-Петербургского ун-та экономики и финансов, 1992., Колесник Е. А. Трансформация сферы занятости региона: факторы и особенности //Социально-трудовые исследования. – 2022. – №. 4 (49). – С. 37-48., Меренкова А. С., Новикова Н. В. Факторы и условия занятости населения в регионе //Гуманитарные научные исследования. – 2017. – №. 2. – С. 359-363., Karaarslan E. Kayit dışı istihdam ve neden olduğu mali kayıpların bütçe üzerindeki etkileri //Ankara: Mali Hizmetler Derneği Yayınları. – 2010., Yıldırım K., Karaman D., Taşdemir M. Makro Ekonomi, Ed //Kemal Yıldırım. – 2008. – Т. 9. – С. 21,

A.A.Qayumov, O.B.Ata-Mirzayev, M.M.Mirzakarimova, Sh.R.Xolmo‘minov, M.Abdullayev, D.A.Nasimov, N.SH.Botirova, D.K.Begimova⁷ kabi ko‘plab iqtisodchi, demograf olimlar va soha mutaxassislari samarali ish olib borgan . Ular tomonidan muayyan ijtimoiy-demografik guruhlarning ish bilan bandligi, migratsiya jarayonlari va yangi ish joylarini yaratish, ishchi kuchi, mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishining qator muammolari, mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hamda bandlik sohasidagi nazariya va metodologiya tadqiq etilgan.

Ushbu olimlarning muammoga bevosita aloqador bo‘lgan ilmiy ishlari respublikada bozor munosabatlari shakllanishi va rivojlanishi sharoiti nuqtai nazaridan amalga oshirilgan bo‘lib, aholi ish bilan bandligi muammolarining islohotlarning hozirgi bosqichiga xos xususiyatlarini ochib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotdagi hozirgi tendensiyalar mintaqalar aholi bandligini oshirish bo‘yicha yangi yondoshuvlar ishlab chiqish zarurligini taqazo etadi. Shu bilan birga, aholi bandligini oshirishning tashkiliy, iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish hamda innovatsion ish bilan bandlikni oshirishni takomillashtirish, bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad vazifalarini belgilashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining FZ-5421033210-sonli “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Aholi bandligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aholi ish bilan bandligi va uning mintaqaviy jihatlariga bag‘ishlangan ilmiy nazariyalarni o‘rganish;

mintaqada aholi bandligini ta‘minlashning xorijiy tajribalarini tadqiq etish orqali olingan ish bilan bandlikni oshirishning samarali jihatlarini O‘zbekiston sharoitida foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda aholi ish bilan bandligi bo‘yicha tafovutlarni qisqartirishga oid chora-tadbirlar mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha

⁷ Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. – T., 2019.– 592 b., Abdurahmonova G., Kichik biznesda aholini ish bilan ta‘minlash. Monografiya. –T., 2014 –216 b., O‘lmasov A., Vahobov A.V. Iqtisodiyot nazariyasi. – T., 2014.- 424 b., Sodiqov A.M. O‘zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va uni tartibga solish mexanizmlari. I.f.d. diss. Avtoref. –T., 2006. – 20 b., Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрирегиональном уровне // Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63, Abulqosimov H., Mehnat resurslari va ulardan unumli foydalanish yo‘llari. Iqtisod va moliya. –T., 2015, -№1, 52-57 b., Soliyev A. O‘zbekiston iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi.–T., 2014.–388 b., Каюмов А., Социально-географические основы формирования и развития трудовых ресурсов Узбекистана. Автореф. дисс. д.г.н. –T., 1994. – С.44., Ata-Mirzayev O, Umarova N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (o‘quv qo‘llanma). – T., 2006. – 96 b., Mirzakarimova M. Milliy iqtisodiyotda bandlik tarkibini takomillashtirishning ilmiy-nazariy jihatlarini. I.f.d. diss. avtoref. – T., 2018.– 82 b., Xolmo‘minov Sh.R., va b.q. Qishloq aholisini ish bilan ta‘minlashning strategik yo‘nalishlari (monografiya). –T., 2020. –278 b., Abdullayev M., Begalova D., O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta‘minlashdagi dolzarb masalalar //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” Ilmiy elektron jurnali. – T., 2021. №.2 (00052) – 114 b., Nasimov D., Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoref. – T., 2020.– 67 b., Botirova N. Innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida mintaqalar sanoati rivojlanishining yo‘nalishlari. I.f.d. diss. avtoref. – T., 2021.– 61 b., Begimova D. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish. I.f.d. diss. avtoref. – T., 2021.– 56 b.

takliflar ishlab chiqish;

Samarqand viloyati demografik vaziyati va uning mehnat bozoriga ta'sirini aniqlash hamda hudud salohiyatidan (mehnat, yer-suv, mineral resurslar, infratuzilma, turizm va boshqalar) samarali foydalanish asosida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish bo'yicha takliflar berish;

aholi samarali bandligini oshirishga ta'sir etuvchi investitsiya, real daromad, mehnat resurslari, yalpi hududiy mahsulot, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik kabi omillar tahlili qilinib mintaqaning 2024–2028-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

aholi bandligini oshirishda ichki va tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqot obyekti aholi bandligini oshirishning mintaqaviy jihatlari va ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti mintaqqa aholisini ish bilan ta'minlash borasida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tarkibiy-funksional, mantiqiylik, statistik tahlil, iqtisodiy tahlil, SWOT tahlil qiyoslash, guruhlash, grafik va jadval, ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining Pstdarg'om, Jomboy, Toyloq va Samarqand tumanlarida «demografik yuk»ni «demografik dividend»ga aylantirishga o'sha hududlarni mos ravishda to'qimachilik, mashinasozlik, oziq-ovqat, maishiy texnika ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Samarqand viloyati hududlarida aholi bandligi va daromadlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga Payariq, Samarqand va Toyloq tumanlarida savdo, umumiy ovqatlanish, ko'ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy qilish orqali va shu asosda samarali bandlikni oshirishga erishish taklifi ishlab chiqilgan;

mintaqada ichki migratsiyani rag'batlantirish va geografik egiluvchanlikni ta'minlashga hududlarda o'z faoliyati davomida ish haqi fondini yiliga 1 dan 10 foizgacha oshirgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga ular tomonidan to'langan ijtimoiy soliq summasining bir qismini qaytarib berish orqali erishish taklifi asoslangan;

mintaqada aholi bandligiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida Samarqand viloyatida ishchi kuchi bandligining 2030–yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“vaucher” tizimi mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, aholi bandligini oshirish, hududda kambag'allikni kamaytirish imkonini bergan;

hududdagi ish bilan bandlik samaradorligini oshirishning yangi mexanizmlari va strategiyalarini joriy etishda foydalanilib, viloyatning rivojlanish darajasi nisbatan past, ekoturizm, rekratsion turizm, tabiiy resurs (yer resurslari) salohiyati yuqori bo'lgan

Urgut, Samarqand va Qo'shrabot tumanlarida o'z ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda o'zini-o'zi band qilish tizimi yo'lga qo'yilgan;

mintaqada yangi ish o'rinlari yaratishning istiqboli ekonometrik baholanib, aholi bandligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar asosida 3 bosqichli ssenariy bo'yicha prognoz parametrlari ishlab chiqilgan;

mintaqalar aholisi ish bilan bandligini mo'tadillashtirish, mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish bo'yicha ishchi kuchi va mehnat bozori integratsiyasini shakllantirishda ichki migratsiyani rag'batlantirishga shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Taklif asosida aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishning hududlar bo'yicha parametrlarini istiqbollashtirish hamda monitoring qilish mexanizmlari yanada takomillashtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda foydalanilgan nazariy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Kambag'alikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy statistik ma'lumotlaridan, axborot bazasining rasmiy manbalaridan olingani hamda ishda qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mintaqa aholisini ish bilan ta'minlashning mazmuni va asosiy yo'nalishlarini belgilash, mintaqa aholisini o'zini o'zi band qilish, vaqtinchalik bandlik shakllariga jalb qilish, ichki va tashqi mehnat migratsiyasi samaradorligini oshirish hamda innovatsion bandlik shakllarini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy dastak hamda vositalarni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-uslubiy yo'nalishdagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqarishda o'z aksini topganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati mintaqada aholini ish bilan ta'minlashning aniqlangan omillari va manbalarini mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga kiritish, bandlikni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy mexanizmlari, dastak va vositalarini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining joylardagi bosh boshqarmalari, shahar va tumanlardagi bo'limlari aholining samarali bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarida, "Mintaqaviy iqtisodiyot", "Demografiya va mehnat iqtisodiyoti", fanlaridan ishchi o'quv dasturlarini takomillashtirishda va talabalar o'quv jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi bandligini oshirishning mintaqaviy xususiyatlari va uni oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Jomboy, Toyloq va Samarqand tumanlarida demografik "yuk"ni "demografik dividend"ga aylantirishga o'sha hududlarni mos ravishda to'qimachilik, mashinasozlik, oziq-ovqat, maishiy texnika ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali erishish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-apreldagi №222-sonli "2022–2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 2-ilovasining 16-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024–yil 10-sentabrdagi 01/00-03/10-9173-son va Samarqand viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2024–yil 27-iyundagi 20/01-1584-son ma‘lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyat bandlikka ko‘maklashish markazlariga ish so‘rab murojaat qilgan aholining ish bilan ta‘minlanishiga erishildi;

Samarqand viloyati hududlarida aholi bandligi va daromadlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartirishga Payariq, Samarqand va Toyloq tumanlarida savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy qilish va shu asosda samarali bandlikni oshirish orqali erishish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 10-martdagi 136-sonli “Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni «Samarqand - Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi» konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorining 4-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024–yil 10-sentabrdagi 01/00-03/10-9173-son ma‘lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatning rivojlanish darajasi nisbatan past, ekoturizm, rekratsion turizm hamda tabiiy resurs (er resurslari) salohiyati yuqori bo‘lgan Urgut, Samarqand va Qo‘shrabot tumanlarida o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanilgan holda o‘zini-o‘zi band qilish tizimi yo‘lga qo‘yilgan;

mintaqada ichki migratsiyani rag‘batlantirish va geografik egiluvchanlikni ta‘minlashga hududlarda o‘z faoliyati davomida ish haqi fondini yiliga 1 dan 10 foizgacha oshirgan kichik tadbirkorlik sub’ektlariga ular tomonidan to‘langan ijtimoiy soliq summasining bir qismini qaytarib berish orqali erishish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 30–avgustdagi PQ-366-sonli “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining 3-ilovasi 9-bandini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024–yil 10-sentabrdagi 01/00-03/10-9173-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mintaqa aholining mehnatda bandligini oshirish va ular faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirdi;

mintaqada aholi bandligiga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida Samarqand viloyatida ishchi kuchi bandligining 2030–yilgacha bo‘lgan ko‘p variantli prognoz ko‘rsatkichlaridan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022–yil 28–apreldagi №222-sonli “2022–2026-yillarda Samarqand viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 4-ilovasining tegishli bandlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024–yil 10-sentabrdagi 01/00-03/10-9173-son va Samarqand viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2024–yil 27-iyundagi 20/01-1584-son ma‘lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi

natijasida viloyatda aholining samarali bandligini ta'minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bir qator ilmiy anjumanlarda, jumladan, 4 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza shaklida bayon etilgan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 68 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzaridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 6 ta nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola, jami 9 ta ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, uning hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, ilmiy tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mintaqa aholisini ish bilan bandligini ta'minlashning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda aholi uning ish bilan bandligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy qarashlar yoritilgan. Bandlik va uning turlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Aholi bandligiga bag'ishlangan xorij hamda o'zbek olimlarining tadqiqotlari o'rganilgan. Aholi bandligini oshirishda xorij tajribasi o'rganilib, bandlik va mehnat bozorini tartibga solish modellari tahlil qilingan, xorij tajribasini O'zbekiston amaliyotiga tadbiiq etish bo'yicha xulosalar berilgan.

Ushbu bobda aholining ish bilan bandligini, uning ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etilish asosida yuzaga kelgan yondoshuvlar, turli konsepsiya va qarashlar tizimlashtirilgan. Jumladan, bandlik nazariyasining shakllanishiga klassik nazariya asoschilari D.Rikardo, J.S.Mill va A.Marshall⁸, yangi klassik nazariya tarafdorlari J.Perri, M.Feldsteyn, R.Xoll⁹, Keynscha nazariya asoschisi J.M.Keyns¹⁰ hamda M.Fridmen, F.Keygen, D.Mayzelman, K.Brunner, A.Molser¹¹ kabi monetaristik qarashlari asos bo'lganligi ochib berilgan. Aholining ish bilan bandligi bo'yicha hozirgi zamon nazariyalari ya'ni shartnomaviy ish bilan bandlik nazariyasi asoschilari D.Gordon, M.Beyli va K.Azariadislar¹² hamda institutsional bandlik nazariyasi tarafdorlari T.Veblen,

⁸ Петти В., Смит А., Рикардо В., Кейнс Дж., Кейнс М., Фридмен М. Классика экономической мысли. - М.: «ЭКМО-ПРЕСС», 2000. - С. 115.

⁹ Низова Л.М. Рынок труда в системе рыночных отношений: институциональный подход. <https://cyberleninka.ru/article/n/rynok-truda-v-sisteme-rynochnyh-otnosheniy-institutsionalnyy-podhod/viewer>

¹⁰ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. - М.: Эксмо, 2007. - 262-271 б.


¹¹ Низова Л.М. Рынок труда в системе рыночных отношений: институциональный подход. <https://cyberleninka.ru/article/n/rynok-truda-v-sisteme-rynochnyh-otnosheniy-institutsionalnyy-podhod/viewer>

¹² Анпилов С.М., Сорчайкин А.Н., Шишкина Е.С. Основные подходы к анализу функционирования современного рынка труда. Основы экономики, управления и права №2 (8), 2013 г. стр-110

K.Gelbreyt¹³ va boshqalarning qarashlari ahamiyatli ekanligi yoritilgan. Xorijiy N.Gauzner¹⁴, L.Starovoytova¹⁵, mahalliy olimlardan Q.Abdurahmonov¹⁶, M.Mirzakarimova¹⁷, A.Vaxabov¹⁸, N.Zokirova¹⁹ kabi olimlarning bandlik haqidagi fikrlari o‘rganilib, ushbu tushunchaga mualliflik ta’rifi keltirilgan. Muallif fikricha bandlik mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy-foydali mehnatda ishtirok etishi yuzasidan bo‘ladigan munosabatlarining ayrim jihatlarini, ularning aynan mehnat qilish, ish joyi bilan ta’minlanishi bilan bog‘liq tomonlarini o‘z ichiga oladi.

Aholining ish bilan bandligiga bag‘ishlangan nazariyalarni o‘rganish natijasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida, ayniqsa mehnat resurslarining o‘shir sur‘atlari yuqori bo‘lganda ishchi kuchiga talab va taklifni erkin bozor holatiga qo‘yish mumkin emas degan xulosaga kelish mumkin. Bunda innovatsion iqtisodiyotning asosiy rivojlanish tamoyillarini inkor etmagan holda davlatning iqtisodiyotga ma’lum ma’noda aralashishi, tartibga solib turishi ham maqsadga muvofiq hisoblanishini aytib o‘tish lozim.

Iqtisodiyoti ko‘p tarmoqli, yuqori ta’lim darajasiga hamda jozibador tadbirkorlik muhitiga ega bo‘lgan mamlakatlarda aholining ish bilan bandlik darajasi (*1-rasm*), aksi bo‘lgan hududlarda esa ishsizlik darajasi yuqori bo‘ladi.



1-rasm. Dunyodagi eng yuqori bandlik darajasiga ega mamlakatlar (% hisobida, 2023-yil)²⁰

Bundan aytish mumkinki, aholi ish bilan bandligining o‘zgarishi makon va zamon xususiyatlariga bilvosita bog‘liqdir. Ya’ni bandlik darajasi vaqt o‘tishi bilan turli omillar, jumladan, iqtisodiy sharoit, mamlakatdagi siyosiy vaziyat ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Bunga Gretsiya, Ispaniya kabi davlatlar misol bo‘la oladi. Ushbu davlatlardagi ish bilan

¹³ Дрождинина Д. Генезис теоретических основ формирования рынка труда. Вестник МГТУ, том 14, №1, 2011 г. стр.7-11

¹⁴ Гаузнер Н. Современная ситуация на российском рынке труда и политика занятости / Н.Гаузнер // Мировая экономика и международные отношения. – 1994. – № 6. – С. 5–11

¹⁵ Старовойтова Л.И. Занятость населения и ее регулирование / Л.И.Старовойтова, Т.Ф.Золотарева. – М.: Академия, 2001. – 190 с.

¹⁶ Abdurahmonov Q.. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. T.: 2019. – 257b

¹⁷ M.M.Mirzakarimova “O‘zbekistonda bandlik tarkibini takomillashtirish muammolari” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2016 y № 2 mart-aprel

¹⁸ O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.:Iqtisodmoliya, 2014.- 424 b

¹⁹ Zokirova N.Q, Shoyusupova N.T, Gabzalilova V.T, Abdurahmonova G.Q. Aholining ish bilan bandligini tartibga solish. (Nazariy va amaliy jihatlar). Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – B.26.

²⁰ <https://data.oecd.org/emp/labour-force-participation-rate.htm#indicator-chart> Labour force participation rate

bandlik darajasi moliyaviy inqiroz natijasida pasaygan, ammo boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan o‘rtacha darajadan yuqoridir.

Bandlik darajasi aholining iqtisodiy faolligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Ushbu ko‘rsatkich mehnatga layoqatli aholi ulushini aks ettirib, ma’lum bir mamlakat yoki mintaqadagi mehnat bozori samaradorligini baholash imkonini beradi.

Aholining ish bilan bandligi tarkibini tadqiq etishda bir qator uslublardan foydalaniladi. Bular balans, funksional yondashish, statistik, matematik, qiyosiy taqqoslash, tarkib-tizim, uslublaridir. Bunday metodlardan foydalanish aholining ish bilan bandlik darajasi tahlilini chuqurlashtirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish hamda ishga joylashtirishga muhtoj, band bo‘lmagan aholini hisoblash metodikasi mavjud. U asosida ishga joylashtirishga muhtoj, mehnat bilan band bo‘lmagan aholi sonini hududlar bo‘yicha hisoblab chiqish, aholi bandligi bo‘yicha o‘rganish va mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini ishlab chiqish tartibi belgilanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2023–yil O‘zbekiston Respublikasi jami aholisi 36024,9 ming kishi shu jumladan iqtisodiy faol aholi soni 15038,3 ming kishini tashkil etgan, shundan, iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar 14014,2 ming kishidan iborat. Respublikadagi band aholi dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisi va ish bilan bandligi²¹

T/r	Ko‘rsatkichlar (ming kishi hisobida)	2000	2005	2010	2015	2020	2023
1.	Jami aholi	24487,7	26021,3	28001,4	31022,5	33905,2	36024,9
2.	Iqtisodiy faol aholi	9018,4	10224,0	12286,6	13767,7	14797,4	15038,3
3.	Iqtisodiyotda band aholi	8983,0	10196,3	11628,4	13058,3	13236,4	14014,2
4.	Jami aholiga nisbatan ishsizlik	35,4	27,7	658,2	709,4	1561,0	1024,1

Jadval ma’lumotlarida, 2023–yilda aholi bandligining umumiy soni 2020–yilga nisbatan 777,8 kishiga ortganligini uning aksi bo‘lgan ishsizlarning umumiy soni 1024,1 ming kishini tashkil etib 536,9 kishiga kamayganligini ko‘rish mumkin. Keltirilgan ma’lumotlar asosida aholi bandligini tahlil qilish uchun dastlabki ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi. Bunda avvalo aholining iqtisodiy faollik koeffitsiyenti, bandlik hamda ishsizlik o‘rganib chiqilgan. Aholining iqtisodiy faollik koeffitsiyenti quyidagi (1) formuladan foydalanib hisoblandi:

$$K_{i.f.k} = \frac{I_{f.ah.}}{U_{ah.}} * 100\% \dots\dots\dots (1\text{-formula})$$

buyerdagi: $I_{f.ah.}$ - iqtisodiy faol aholi, $U_{ah.}$ – umumiy aholi.

$$K_{i.f.k} 2000 = \frac{9018,4}{24487,7} * 100\% = 37\% \quad K_{i.f.k} 2005 = \frac{10224,0}{26021,3} * 100\% = 39,3\%$$

$$K_{i.f.k} 2010 = \frac{12286,6}{28001,4} * 100\% = 44,7\% \quad K_{i.f.k} 2015 = \frac{13767,7}{31022,5} * 100\% = 44,4\%$$

$$K_{i.f.k} 2020 = \frac{14797,4}{33905,2} * 100\% = 43,6\% \quad K_{i.f.k} 2023 = \frac{15038,3}{36024,9} * 100\% = 42,0\%$$

²¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

va hakozi.

1–jadval ma’lumotlaridan foydalangan holda 2–formula asosida bandlik darjasini hisoblab chiqildi.

$$K_{b.k} = \frac{B_{ah.}}{I_{f.ah.}} * 100\% \dots\dots\dots(2\text{-formula})$$

buyorda: $I_{f.ah.}$ - iqtisodiy faol aholi, $B_{ah.}$ – band aholi.

$$K_{b.k2000} = \frac{8983,0}{9018,4} * 100\% = 99,6\% \quad K_{b.k2005} = \frac{10196,3}{10224,0} * 100\% = 99,7\%$$

$$K_{b.k2010} = \frac{11628,4}{12286,6} * 100\% = 94,6\% \quad K_{b.k2015} = \frac{13058,3}{13767,7} * 100\% = 94,8\%$$

$$K_{b.k2020} = \frac{13236,4}{14797,4} * 100\% = 89,5\% \quad K_{b.k2023} = \frac{14014,2}{15038,3} * 100\% = 93,1\%$$

Ma’lumotlar asosida qilingan hisoblardan shuni aytish mumkinki, o’rganilayotgan yillar (2000–2023-y.y.) davomida aholi bandlik koeffitsiyenti 2020–yil eng past ko’rsatkichni qayd etgan. Bu bevosita butun dunyoda kuzatilgan COVID pandemiya sharoiti bilan bevosita bog‘liq sanaladi. 2023–yilga kelib vaziyatning yaxshilanishi bilan birga bandlik koeffitsiyentining barqarorlashganini ko’rishimiz mumkin.

2000–2023-yillarda aholi bandligining aksi bo‘lgan ishsizlik koeffitsiyentini tahlil qilganda koeffitsent ko’rsatkichlarining 2020–yil oshganligi ko‘zga tashlanadi.

Ishsizlik darjasini hisoblash,

$$K_{i.k} = \frac{I_{ah.}}{I_{f.ah.}} * 100\% \dots\dots\dots(3\text{-formula})$$

buyorda: $I_{f.ah.}$ - iqtisodiy faol aholi, $I_{ah.}$ – ishsiz aholi.

$$K_{i.k2000} = \frac{35,4}{9018,4} * 100\% = 0,4\% \quad K_{i.k2005} = \frac{27,7}{10224,0} * 100\% = 0,3\%$$

$$K_{i.k2010} = \frac{658,2}{12286,6} * 100\% = 5,4\% \quad K_{i.k2015} = \frac{709,4}{13767,7} * 100\% = 5,1\%$$

$$K_{i.k2020} = \frac{1561,0}{14797,4} * 100\% = 10,5\% \quad K_{i.k2023} = \frac{1024,1}{15038,3} * 100\% = 6,8\%$$

Hisoblash natijalarini umumiy ko‘rinishi 2-jadvalda aks etgan.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisi iqtisodiy faollik darajasi

T/r	Ko‘rsatkichlar (% hisobida)	2000	2005	2010	2015	2020	2023
1.	Iqtisodiy faol aholi koeffitsiyenti	37	39,3	44,7	43,6	44,4	42,0
2.	Band aholi koeffitsiyenti	99,6	99,7	94,6	94,8	89,5	93,1
3.	Ishsiz aholi koeffitsiyenti	0,4	0,3	5,4	5,1	10,5	6,8

2023–yil iqtisodiy faol aholi koeffitsiyenti 42,0 foizni tashkil etgan bu 2020–yilga nisbatan 2,4 foizga kam. Shu davrlar oralig‘ida bandlik darjasi 3,6 foizga oshib 93,1 foizni tashkil etgan. Uning aksi bo‘lgan ishsizlik darajasi 2020–yildagi 10,5 foiz ko‘rsatkichdan 2023–yil 6,8 foizga pasaygan.

2023 – yil respublika aholisi tarkibida iqtisodiyotda bandlar soni 14014,3 ming kishini tashkil etib, 2000 – yilga nisbatan 152,6 foizga ortgan. Bandlikning o‘rtacha yillik o‘sishi 214,7 ming kishidan iborat bo‘lgan.

Ma’lumki, mehnat resurslarining sifati va undan foydalanish intensivligi mamlakatlar bo‘yicha farqlanadi. Dunyo davlatlaridan Xitoy, Hindiston, Braziliya, Indoneziya kabi yirik mamlakatlarda katta miqdordagi mehnat resurslari mavjud. Rivojlangan mamlakatlardagi mehnat resurslari AQSH va Yaponiyada jamlangan. Iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarga aholi bandligidagi asosiy tarkibiy o‘zgarishlar innovatsion texnologiyalar axborot va telekommunikatsion texnologiyalar hamda tibbiyot, sog‘liqni saqlash, hududiy yo‘nalishlari bilan belgilanadi.

Jahon iqtisodiy tizimining bir qismi sifatida rivojlanish jihatining asosiy tendensiyalari va qonuniyatlari O‘zbekistonga ham xosdir. Chunki, jahonning etakchi mamlakatlari iqtisodiyoti uzoq davrdan buyon innovatsion rivojlanish yo‘lidan bormoqda, bu tajribani o‘rganish O‘zbekiston bandlik tarkibidagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun foydali bo‘ladi. Bunda respublika iqtisodiyotining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish lozim: respublika mehnat salohiyatidan foydalanish darajasi bo‘yicha rivojlangan mamlakatlardan ancha ortda qolgan; ishchi kuchiga bo‘lgan talab va uning mehnat bozoridagi taklifi bilan muvozanatlashmaganligi innovatsion iqtisodiyot foydasiga ketayotgan malakali kadrlarning qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi.

Mintaqalardagi aholining ish bilan bandligini tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri bu o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash hisoblanadi. Bandlikning ushbu turi bo‘yicha ham xorijiy tajribani o‘rganish hamda mamlakatga mos keladigan jihatlarini amaliyotga tadbiiq etish aholi bandligining samaradorligini yanada oshiradi.

O‘zbekistonda o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash deganda, qo‘lida hunari bor, jismoniy va yuridik shaxslarga maishiy hamda texnik xizmat ko‘rsatish, xususiy repititorlik, trenerlik va konsultantlik yoki tarjima qilish xizmatlari bilan shug‘ullanish, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish, dasturlash xizmatlarini taqdim etish²² bilan shug‘ullanadigan shaxslar o‘zini o‘zi band qiladigan shaxs–frilanser hisoblanadi.

Ikkinchi bob **“Mintaqa aholisi ish bilan bandligining holati va rivojlanish tendensiyalari”** deb nomlanib, unda ish bilan bandlikni oshirishning huquqiy – institutsional asoslari, davlat, ish beruvchi hamda xodim o‘rtasidagi munosabatlarning tartibga solinishi masalalari yoritilgan. Aholi bandligi tarkibi va rivojlanish tendensiyalari tahlili amalga oshirilgan, mintaqadagi demografik vaziyat va uning mehnat bozoriga ta‘siri o‘rganilgan.

Aholining ish bilan bandligi tashkiliy-huquqiy jihatdan belgilangan ish kuni uzoqligi va rejim (ya‘ni to‘liq yoki to‘liqsiz ish kuni, ishning qat‘iy yoki o‘zgaruvchan, egiluvchan rejim), mehnat faoliyatining muntazamligi (doimiy, vaqtinchalik, mavsumiy, tasodifiy ish), ishning bajarilish joyi (korxonada, tashkilot, muassasa yoki uyda), faoliyatning statusi (asosiy, qo‘shimcha, ikkilamchi) va hokazolarda ifodalanadi.


Respublikada aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, bandligini ta‘minlash bo‘yicha yangi ta‘sirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik sub’yektlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish maqsadida bir qancha normativ huquqiy hujjatlar, jumladan, so‘ngi ikki yil mobaynida 13 ta O‘zRes.PQ, 8 ta idoraviy hujjatlar, 7 ta O‘zRes.VMQ, 1 ta kodeks, 2 ta O‘zRes.PF, 2 ta qonun qabul qilingan²³.

Mintaqalardagi aholi soni va tarkibi mintaqaning demografik vaziyatini belgilab beradi. Bu mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Respublika mintaqalarining iqtisodiy o‘shishini o‘rganganda viloyatlardagi

²²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4742-son Qarori ilovasi. O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar uchun faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari RO‘YXATI xaqida. 08.06.2020

²³ Lex.uz

ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning turlichaligining guvohi bo'lamiz. Tadqiqot obyekti bo'lgan Samarqand viloyatining O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni quydagichadir. Mintaqada respublika mehnat resurslarining 11,9 foizi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining 11,0 foizi, ishsiz aholining 11,4 foizi mavjud. Viloyat tuman va shaharlaridagi doimiy aholi sonining umumiy o'rtacha ko'rsatkichi 259,2 ming kishidan iborat bo'lib, aholi soni bo'yicha Samarqand shahri (572,8 ming kishi) va Urgut tumani (545,7 ming kishi) yetakchilik qiladi. Kattaqo'rg'on shahri (93,4 ming kishi) va Qo'shrabot tumanlari (139,1) oxirgi o'rinlarda turadi. Mintaqa aholisining demografik o'sish ko'rsatkichlari respublikaga nisbatan yuqori, viloyatda har ming aholiga nisbatan hisoblaganda tug'ilish 27,4, o'lim-4,7 va tabiiy ko'payish 22,7 promillni tashkil etadi (2-rasm). Tug'ilish darajasi tog'li hududlar Urgut (31,4%), Qo'shrabot (29,9%) va Payariq (31,7%) tumanlarida yuqori, Kattaqo'rg'on (25,7%), Pastdarg'om (26,1%) hamda Nurobod (26,2%) tumanlarida past ko'rsatkichga ega.




2-rasm. Samarqand viloyati aholisining tabiiy o'sishi²⁴.

Rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlardan aytish mumkinki, mintaqa demografik vaziyatiga ko'ra yuqori mehnat resurs salohiyatiga ega. Mintaqada ham respublikaning boshqa hududlarida bo'lganidek mehnat resurslaridan to'la va samarali foydalanish muammosi mavjud. Mintaqa aholisining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni kamaymoqda, aksincha, mehnatga layoqatli va undan katta yoshdagi aholi soni esa ko'paymoqda. Tahminan bundan o'n yil avval 2015–yil mintaqa jami aholisi tarkibida mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar ulushi 31,6 foizni, mehnatga layoqatli yoshdagilar 62,4 foizni, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar 6,0 foizni tashkil etgan. 2023–yilga kelib viloyatda doimiy aholi sonining 33,1 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,6 foizi mehnatga layoqatli yoshdagilar va 8,3% mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. O'rta qolgan davrlarda bu ko'rsatkichni sezilarli darajada o'zgarganligini ko'rish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar viloyat tumanlari bo'yicha ham farq qiladi. Mehnatga layoqatli yoshgacha bo'lgan aholi soni yuqorida keltirib o'tgan tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan Urgut, Qo'shrabot, Payariq tumanlarida, mehnat yoshidagi aholi soni Samarqand shahri hamda Nurobod va Qadaryo

²⁴ Manba. Samarqand viloyat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

tumanlarida, mehnatga layoqatli yoshdan kattalar soni esa Samarqand shahri, Samarqand hamda Paxtachi tumanlarida yuqori (3-rasm).



3-rasm. Samarqand viloyati aholisining yosh tarkibi (2023-yil)²⁵

3-rasmda keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, viloyat demografik dividend bosqichida, ya'ni demografik tendensiyalarga ko'ra, aholi tarkibida bolalar va qariyalarga nisbatan mehnatga layoqatli yoshdagilarning ulushi yuqori va u tadrijiy barqaror ahamiyatga ega. Demografik dividenddan samarali foydalanishning asosiy sababi bu ta'limga e'tibor qaratish hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilayotgan e'tiborning naqadar to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Birinchidan, viloyat yoshlarining sog'lomligi bu mintaqa salohiyati. Ikkinchidan, yoshlar moslashuvchan, yangiliklarni yaratish va sinab ko'rishga qiziquvchan bo'lishi bilan birga ilg'or, kuchli g'oyalarni yaratishi ham mumkin. Uchunchidan, yoshlar salohiyatidan to'g'ri samarali foydalanish lozim. Chunki, yoshlar ba'zan demografik dividend olish imkoniyatini yuzaga keltirsa, ba'zida demografik "yuk"ga ham aylanishi mumkin. Ya'ni mamlakatning yirik muammosi yoki boyligiga aylanishi mumkin. Yoshlar va ayollarning samarali mehnatda bandligi aholi daromadlari, turmush darajasi, hududiy eksport hajmiga ijobiy tasir ko'rsatadi. Hududdagi ijobiy natijalari mamlakatning samarali va munosib mehnatda bandligini oshiradi, barqaror inkluziv iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Aholi sonining ortib borishi bilan viloyatda aholi zichligi ham ortib bormoqda. Aholining eng yuqori zichligi Samarqand tumaniga to'g'ri keladi (590), ikkinchi o'rinda (552) Toyloq tumani turadi. Bu tumanlar ko'rsatkichlari respublikada aholi zichligi eng yuqori bo'lgan Andijon viloyatiga o'xshab ketadi. Shuningdek, Urgut, Narpay, Pstdarg'om tumanlarida ham zichlik ko'rsatkichlar yuqori. Tog' va tog'oldi rayonlaridagi Qo'shrabot, Payariq, Jomboy, Bulung'ur, Toyloq, Urgut, Samarqand tumanlarida qishloq aholisining 54 foizi, jami aholining 45 foizi yashaydi. Ish joylarini shaharlar va qishloqlarda mutanosib holda yaratilishi ixtisoslashuvni va ish joyida mehnat unumdorligini tezlashtiradi.

Mintaqada ishlab chiqarishni samarali joylashtirish ham aholi bandligini oshirishga asos bo'ladi. Markaziy shahar atrofida kichik va o'rta korxonalar ishlab chiqarishining kengayishi hududning joylashtirish imkoniyatlarini oshiradi. Jumladan, bunday

²⁵ Manba. Samarqand viloyat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

joylashtirish viloyatning aholisi zich bo'lgan Pstdarg'om, Jomboy, Toyloq va Samarqand tumanlarida demografik "yuk"ni "demografik dividend"ga aylantirishga o'sha hududlarni mos ravishda to'qimachilik, mashinasozlik, oziq-ovqat, maishiy texnika ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish va shu asosda yangi ish o'rinlarini yaratish samarali bandlikga erishishda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, ushbu hududlar yo'l bo'yi hamda markaziy shaharga yaqin joylashganligi sababli viloyat turistik industriyasini rivojlantirishni yanada oshiradi.

Shuningdek viloyatda samarali foydalanilmagan, "e'tibordan chetda qolgan" resurslar mavjud deyish mumkin. Masalan, yer, suv, ishchi kuchi (ish bilan ta'minlanmaganlar), kapital va boshqalar. Bularidan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish orqali yangi korxonalar, kichik biznes subyektlari, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tashkil etish. Turizm, to'qimachilik sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda istiqbolli loyihalar amalga oshirish mumkin. Mintaqaning Payariq, Samarqand va Toyloq tumanlaridagi turistik obyektlarga investitsiyalarni jalb yetish orqali Turistik mahsulotlar – turistik xizmatlar (bronlashtirish, tashish, joylashtirish, ovqatlantirish, turli ko'ngil ochar xizmatlar), turistik ishlar (foto xizmati, sug'urta, axborot, moliya, bank xizmati), turistik tovarlar (esdalik sovg'alar, xilma-xil turistik tovarlar, iste'mol tovarlari – parfyumeriya, tamaki, spirtli ichimliklar, maishiy texnika, kiyim-kechak va boshqalar)ni shakllantirishi natijasida hudda samarali aholi bandligi ta'minlanishi mumkin. Masalan, turizm infrastrukturasi yanada yaxshilash orqali mahalliy hamda xorijiy sayyohlarning mintaqada ko'proq qolishiga imkoniyat yaratiladi. Mintaqada turistlarning o'rtacha qolishi 2,6 kunni tashkil qiladi. Xorijlik turistlarning 1 kunlik xarajati 152 AQSH dollardan, mahalliy turistlarniki 550 ming so'mdan iborat. Ularning yana 1 kun qolish kunlarini uzaytirish orqali turizm xizmatlari eksporti yiliga qo'shimcha 14 mln AQSH dollariga ko'payadi.

Samarqand tumanida Konigil turizm qishlog'ining tashkil etilishi asosida 100 ta turizm obyekti va 500 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishi mumkin. Bu loyiha Samarqandni turizm markazi bilan bog'laydi. Viloyatning Toyloq tumanidagi Imom ad-Doramiy maqbarasining ta'mirlanishi natijasida, yangi masjid, kutubxona, o'quv xonalarni barpo etishni o'z ichiga olgan loyihaning amalga oshirilishi orqali tumandagi ish bilan band bo'lmagan aholini samarali bandligini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Mintaqada aholi sonining o'sishida migratsiyaning roli katta emas. Hududga doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar soni 2023–yil 10880,0 kishini, ko'chib ketganlar-15198,0 kishini, migratsiya sal'dosi -4318 kishini tashkil etgan 3-jadval).

3-jadval

Samarqand viloyati aholisining migratsiya ko'rsatkichlari (2023–y. kishi isobida)²⁶

Hududlar	2010			2015			2020			2023		
	Kelgan	Ketgan	Saldo	Kelgan	Ketgan	Saldo	Kelgan	Ketgan	Saldo	Kelgan	Ketgan	Saldo
Samarqand vil.	12332	15371	-3039	10709	14266	-3557	5142	17785	-12643	10880	15198	-4318
Samarqand sh.	3649	3693	-44	2330	3511	-1181	880	2688	-1808	4707	2840	1867
Kattaqo'rg'on sh.	541	487	54	509	664	-155	280	616	-336	450	677	-227
Oqdaryo	629	526	103	678	541	137	99	598	-499	575	549	26

²⁶ Manba. Samarqand viloyatining demografik holati 2023-yil yanvar – dekabr 12 b

Bulung'ur	852	1012	-160	825	910	-85	433	1097	-664	366	777	-411
Jomboy	612	737	-125	690	540	150	341	483	-142	350	437	-87
Ishtixon	414	795	-381	730	699	31	279	1417	-1138	363	1048	-685
Kattaqo'rg'on	729	979	-250	904	982	-78	441	2121	-1680	467	1035	-568
Qo'shrabot	689	860	-171	575	538	37	164	989	-825	315	933	-618
Narpay	37	507	-470	582	620	-38	393	1256	-863	292	786	-494
Payariq	334	1008	-674	41	1097	-1056	245	1498	-1253	536	1220	-684
Pastdarg'om	332	902	-570	442	710	-268	213	883	-670	566	877	-311
Paxtachi	240	1152	-912	284	821	-537	351	1071	-720	417	1231	-814
Samarqand	1213	889	324	950	1081	-131	555	661	-106	767	780	-13
Nurobod	523	462	61	64	380	-316	19	736	-717	133	524	-391
Urgut	518	716	-198	403	750	-347	146	1299	-1153	273	1165	-892
Tayloq	1020	646	374	702	422	280	303	372	-69	303	319	-16

Jadval ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, viloyatning shahar va qishloqlarining har biri o'rtacha bir yilda 4,0-4,5 ming kishidan «yutqazib» kelyapti, ya'ni migratsiya qoldig'i salbiy. Keyingi yillarda ham vaziyat deyarli shundayligicha qolmoqda. Migratsiya saldosi Paxtachi (-814), Urgut (-892), Payariq (-684), Ishtixon (-672) tumanlarida yuqori ko'rsatkichga egaligi qayd etilgan. Faqatgina Samarqand (+13) va Toyloq (+16) tumanlarida ko'chib ketganlarga nisbatan kelganlar soni musbat darajada. Manfiy migratsion saldo ko'rsatkichi bo'yicha viloyatda Paxtachi hamda Urgut tumani eng yuqori o'rinni egallab turibdi. Aholi soni bo'yicha ham yuqori o'rinlarni egallovchi ushbu tumalarni to'liq erkin iqtisodiy zonaga aylantirish, viloyatning barcha hududlarida ushbu iqtisodiy zonaning filiallarini tashkil etish hudud mehnat resurslarining iqtisodiyot soha va tarmoqlari bo'yicha samarali bandligini oshiradi.

Migratsiya oqimlari hududning ishlab chiqarish salohiyati bilan bir qatorda aholi joylashuviga ham ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni aholi iqtisodiy jihatdan sust rivojlangan hududdan, yaxshiroq rivojlangan ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilgan hududga ko'chib o'ta boshlaydi. Bu o'z navbatida aholining iqtisodiy nochor hududlardan yaxshi rivojlangan hududlarga oqib o'tishini cheklash, tartibga solish chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. U quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin (4-jadval)

4-jadval

Migratsion jarayonlarni tartibga solish chora-tadbirlari²⁷

T/r	Hududlar holati	Amalga oshirish mehanizmi
1	Yangi o'zlashtirilayotgan	Yangi o'zlashtirilayotgan, istiqbolli hududlarga ko'chib boruvchilar uchun qo'shimcha imtiyozlar, ijtimoiy kafolatlar belgilash, joriy qilish;
2	Iqtisodiy ijtimoiy nochor (qoloq)	Qoloq hududlardan aholining chiqib ketishini to'xtatish uchun ularga ham qo'shimcha imtiyoz va rag'batlar berish
3	Nisbatan barqaror rivojlanishga ega	Turli hududlardan ko'chib kelgan migrantlarni ish bilan ta'minlash, ishga joylashtirish bilan bog'liq muommolarni hal qilish


Jadvalni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, bunday chora tadbirlarni amalga oshirish hududlar aholisining barqarorligini va rivojlanishini ta'minlaydi.

Ish bilan bandlikni oshirishning iqtisodiy dastaklardan yana biri bu norasmiy iqtisodiyotda ish bilan band bo'lgan ayollar, o'smir-yoshlar va mehnatga layoqatli pensionerlar uchun ish beruvchilari tomonidan kafolatlangan yangi ish o'rinlari tashkil etish, yangi ish o'rinlarini yaratgan kichik tadbirkorlarga turli moliya soliq va kredit imtiyozlarini taqdim etish hisoblanadi. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yillik

²⁷ Jadval muallif tomonidan tuzilgan manba Abulqosimov X Iqtisodiy xavfsizlik – T., 2006 y. 84 b

mehnatga haq to‘lash fondi miqdori yiliga 1 foizdan 10 foizga oshirilganda ular tomonidan to‘langan ijtimoiy soliq summasining bir qismini qaytarish tizimini joriy etishni yo‘lga qo‘yish ham maqsadga muvofiq bo‘lib, natijada, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birga ular negizida serdaromad ish joylari tashkil etish imkoniyati yuzaga keladi. Norasmiy sektorida ish bilan bandlikni kamaytirishning ijtimoiy-demografik mexanizmlarining asosiylarini kambag‘allik maqomiga ega norasmiy ish bilan band bo‘lganlarni imtiyozli yoki bepul uy-joylar bilan ta‘minlash, komunal xizmatlar to‘lovlaridan kamida bir yilga ozod etish yoki 30-50% to‘lovlarni amalga oshirishga ruxsat berish, o‘smir-yoshlar, ko‘p bolali ayollar va mehnatga layoqatli pensionerlar uchun ijtimoiy kafolatlangan mehnat, dam olish hamda bola parvarishlash sharoitlarini yaratish kabi chora-tadbirlar tashkil etadi. Mazkur mexanizmlar majmuasida mintaqada norasmiy ish bilan band yoshlarini ish beruvchilar hisobidan zamonaviy, profesional kasb-hunarlariga o‘rgatish, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini mehnatga moslashuvchanligini oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga samarali ichki va tashqi mehnat migratsiyalarini tashkil etish ishchi kuchi eksporti samaradorligini oshirish mazkur chora-tadbirlar kompleksida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ushbu mexanizmlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyat va uning tumanlaridan 2023–yil bandlikka ko‘maklashish markazlariga ishga joylashishga yordam berishni so‘rab, 68447 nafar fuqaro murojaat qilgan. Murojaat qilganlarning 44,5 foizi ish bilan ta‘minlangan. Ularning 27,6 foizi “vaucher (voucher-based work)” tizimi asosida xaq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilingan. Bunda fuqarolar asosan o‘qishga kirish uchun, ish xaqini qoplash, o‘z biznesini ochish kabi turlaridan samarali foydalangan. Natijada, “vaucher” tizimi mehnat resurslari salohiyatidan samarali foydalanish, samarali bandlikni tashkil etish, hududlarda kambag‘allikni kamaytirish imkonini bergan. Murojaat etganlarning 37,5 foizi qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslariga yuborilgan, 2653 tasi ishsiz deya ro‘yxatga olingan. Bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat etganlarni hududiy xususiyatlari bo‘yicha o‘rganganilganda Samarqand (61%), Jomboy (60%), Payariq (58%) tumanlarida ish bilan ta‘minlash yuqori, Pastdarog‘om (33%), Paxtachi (25%), Ishtixon (35%) tumanlarida past ko‘rsatkichlar qayd etilgan (4-rasm).



4-rasm. Samarqand viloyatidagi bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali ishga joylashtirilgan aholi soni (2023–yil, kishi hisobida)²⁸.

Dissertatsiyaning uchinchi “Mintaqada aholi ish bilan bandligini oshirishning

²⁸ Manba. Samarqand viloyat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari

ustuvor yo‘nalishlari” nomli bobida samarali bandlikni oshirish xususiyatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning ekonometrik tahlili amalga oshirilgan. Ichki va tashqi migratsiyaning aholi bandligini oshirishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. O‘zbekiston mintaqalaridagi migratsion jarayonlar tahlil qilinib tartibga solish chora-tadbirlar mexanizmlarini mustahkamlash hamda innovatsion itisodiyot sharoitida mintaqada bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishining mazkur bobida o‘rganish obyekti bo‘lgan aholi bandligiga ta’sir etuvchi tanlanma omillar asosida ekonometrik tahlil o‘tkazilib, ular asosida aholi bandligi (Y), aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi o‘rtacha investitsiya hajmi (X1), aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi real daromad ming so‘m (X2), jami mehnat resurslari (X3), aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi hududiy mahsulot (X4) va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushiga (X5) bog‘liqligining ekonometrik modeli ishlab chiqildi. Tahlilga ko‘ra

$$y = f(x_1, x_2, x_3, x_4, x_5)$$

Model qisman korrelyatsiya koeffitsentlari va eng kichik kvadratlar usuli (LSM) bilan hisoblangan regressiya parametrlari hisob-kitoblar asosida baholangan.

Ekonometrik modelning qisman korrelyatsiya koeffitsentlari ishlab chiqilgan korrelyatsiya matritsasi (5-jadval) olingan:

5-jadval

Korrelyatsiya matritsasi

	X1	X2	X3	X4	X5	Y
X1	1					
X2	0,96886268	1				
X3	0,87665719	0,91554803	1			
X4	0,98467587	0,99624912	0,91392482	1		
X5	-0,49656028	-0,41089706	-0,05892084	-0,43471345	1	
Y	0,74281554	0,80612649	0,95813738	0,79726777	0,19203488	1

$r(X1X2) = 0,96$, $r(X1X3) = 0,87$, $r(X1X4) = 0,98$, $r(X1Y) = 0,74$, $r(X2X3) = 0,91$, $r(X2X4) = 0,99$, $r(X2Y) = 0,80$, $r(X3X4) = 0,91$, $r(X3Y) = 0,95$, $r(X4Y) = 0,79$ omillar o‘rtasidagi munosabatlar yaqin va to‘g‘ri.

$r(X1X5) = -0,49$, $r(X2X5) = -0,41$, $r(X4X5) = -0,43$ omillar orasidagi munosabatlar o‘rtacha, teskari yo‘nalishda.

$r(X3X5) = -0,05$, omillar o‘rtasidagi munosabatlar zaif, teskari yo‘nalishda.


$r(X5Y) = 0,19$, omillar o‘rtasidagi munosabatlar zaif, to‘g‘ri yo‘nalishda.

Korrelyatsion jadvaldan ko‘rinib turibdiki egzogen omillar orasida multikollenearlik mavjud. Bu esa modelning sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Multikolleniarlikni tekshirish uchun Standart normallashtirilgan matritsa hosil qilingan.

Qisman korrelyatsiya koeffitsentlarini baholashdan ko‘rinadiki, modelda tashqi, ya’ni $y \leftarrow x$ (i) omillari o‘rtasidagi bog‘lanishlar ustunlik qiladi.

$x(i+1) \leftarrow x(i)$ o'rtasidagi ichki bog'lanishlar uncha ko'p bo'lmagan korrelyatsiya samarasiga ega, x_1 va x_2 o'zgaruvchilari bundan mustasno, shuning uchun ushbu o'zgaruvchilar o'rtasida multikollinearlik mavjudligini prognoz qilish mumkin (5-rasm).

Albatta, agar regressiyaviy tahlilning yagona maqsadi prognoz qilish bo'lsa, multikollinearlik muammo hisoblanmaydi, chunki R^2 (determinatsiya koeffitsiyenti) qiymati qanchalik yuqori bo'lsa, prognoz qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Agar tadqiqotning maqsadi nafaqat prognoz qilish, balki parametr qiymatlaridan (parametr baholari) foydalanadigan model tahlili bo'lsa, u holda multikollinearlik muammoga aylanadi, chunki uning mavjudligi parametrlarni baholashda katta standart xatolarga olib keladi.



5– rasm. Aholi bandligiga ta'sir etuvchi omillar orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentining Eviews 12 paketi orqali o'rganilishi²⁹.

Multikollinearlikning tashqi belgilari ikki omil, xususan: R^2 determinatsiya koeffitsiyentining yuqori qiymati (bu Fisher testiga muvofiq nol parametr qiymatlari yo'qligidan dalolat beradi) va t-statistikaning ahamiyatsizligining (Styudent mezoniga ko'ra, bu bir yoki bir nechta hisoblangan parametrlar noldan statistik jihatdan kam farq qilishini anglatadi) qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshilikning mavjudligi hisoblandi.

Farrar-Glauber algoritmidan foydalangan holda, omil o'zgaruvchilari o'rtasida mustahkam korrelyatsiya mavjudligi aniqlandi.

Algoritmning birinchi bosqichida ekonometrik modelning X_1, X_2, X_3, X_4, X_5 omil o'zgaruvchilarini quyidagi formulalar yordamida normallashtiriladi:

$$x_{ik}^* = \frac{x_{ik} - \bar{x}_k}{\sqrt{\delta_{ik}^2 n}} \quad \text{ёки} \quad x_{ik}^* = \frac{x_{ik} - \bar{x}_k}{\delta_{ik}}$$

bu yerda

²⁹ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

- n - tegishli omil o'zgaruvchilari ustidan kuzatuvlar soni;
- m - omil o'zgaruvchilar soni;
- \bar{x}_k - x_k omili qiymatlarining o'rtacha arifmetik qiymati;
- δ_{ik}^2 - ik izohlovchi o'zgaruvchining dispersiyasi (standart og'ishi).

Ma'lumotlarni normallashtirish va standartlashtirish bir xil o'zgarishlar diapazoniga ega bo'lgan statistik tanlov qiymatlarni olish uchun amalga oshiriladi. Normallashtirish va standartlashtirish o'rtasidagi farq shundaki, normallashtirish 0 dan 1 gacha oraliqdagi ma'lumotlarni o'zgartiradi, standartlashtirish esa taqsimoti 0 o'rtacha qiymatga va 1 standart og'ishga ega bo'lgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

6-jadvalda Excel elektron prosessorida normallashtirish funksiyasi bilan olingan standartlashtirilgan o'zgaruvchilar matritsasi keltirilgan.

6-jadval

Standart o'zgaruvchilar matritsasi

y	x1	x2	x3	x4	x5
-1,95397233	-0,9464403	-1,16737612	-1,94378927	-1,10320372	-1,14604
-1,522560719	-0,9152033	-1,00602733	-1,27649304	-0,99834059	-0,62557
-1,070372492	-0,8550316	-0,8804638	-0,94558364	-0,89185221	-0,30027
-0,625901294	-0,7833475	-0,73225729	-0,64813432	-0,7829329	0,415377
-0,187959889	-0,7005347	-0,59936397	-0,36961792	-0,64334228	1,00091
0,168062283	-0,6208303	-0,44634874	-0,09800788	-0,50471013	1,196087
0,524381264	-0,5529453	-0,2688464	0,1553837	-0,37303737	1,391264
0,853690642	-0,3153286	-0,08361744	0,36662273	-0,12549981	1,261146
0,486834949	0,27633389	0,16979726	0,561072186	0,311177559	0,155141
0,884558759	1,06877326	0,57657733	0,703247722	0,716530732	0,090082
0,432370531	1,18608499	0,86246254	0,952352598	0,969999748	-1,01592
0,881293862	1,46265208	1,48864615	1,162758103	1,45072547	-1,01592
1,129574434	1,69581729	2,08681782	1,380189032	1,974485499	-1,40628

MC Excel paketi yordamida

Korrelyatsiya matritsasini quyidagi formuladan foydalanib hisoblanadi:

$$R = \begin{pmatrix} 1 & 0,968863 & 0,876657 & 0,984676 & -0,49656 \\ 0,968863 & 1 & 0,915548 & 0,996249 & -0,4109 \\ 0,876657 & 0,915548 & 1 & 0,913925 & -0,05892 \\ 0,984676 & 0,996249 & 0,913925 & 1 & -0,43471 \\ -0,49656 & -0,4109 & -0,05892 & -0,43471 & 1 \end{pmatrix}$$

Keyingi bosqichda matritsa determinanti hisoblanadi. Ya'ni, Det(R)=0,00000109291 Xi-Kvadrat kriteriyasiga ko'ra

$$\chi_{\sin ov}^2 = -\left(n-1 - \frac{1}{6} \cdot (2m+5)\right) \cdot \ln |R| \text{ formula yordamida hisoblaymiz. } \chi_{\sin ov}^2 = 130.4.$$

Taqqoslash uchun erkinlik darajasi 11 bo'lgan va $a=0.05$ qiymatdorlik darajasi bilan ni hisoblanadi.

$$\chi_{\text{tabl}}^2 = 18,30704.$$

$$\chi_{\sin ov}^2 > \chi_{\text{tabl}}^2 \text{ bo'ladi.}$$

Demak, Multikolleniarlik mavjud. Tadqiqotning keyingi bosqichi F-mezonini quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz.

$$F_k = \frac{(c_{kk} - 1) \cdot (n - m)}{m - 1}$$

Bu yerda c_{kk} R matritsaga teskari bo'lgan $C = R^{-1}$ matritsaning diagonal elementi.

$$C = \begin{pmatrix} 107,2039 & 162,567 & 4,805308 & -270,778 & 2,603732006 \\ 162,567 & 409,6426 & 36,39529 & -606,947 & -12,65843459 \\ 4,805308 & 36,39529 & 47,8453 & -93,6515 & -20,55166028 \\ -270,778 & -606,947 & -93,6515 & 972,3831 & 33,33941172 \\ 2,603732 & -12,6584 & -20,5517 & 33,33941 & 10,37376746 \end{pmatrix}$$

Bunga ko'ra, $F_1 = 212,4079$, $F_2 = 817,2852$, $F_3 = 93,6906$, $F_4 = 1942,766$ va $F_5 = 18,74753$.

Endi $\alpha = 0.05$ qiymatdorlik darajasi va erkinlik darajalari 11 va 2 bo'lgan F- testing kritik qiymatini jadvaldan topamiz.

$$F_{\text{tabl}} = 19,40495796$$

$F_1 > F_{\text{tabl}}$, $F_2 > F_{\text{tabl}}$, $F_3 > F_{\text{tabl}}$, $F_4 > F_{\text{tabl}}$, bo'lgani uchun X_1, X_2, X_3, X_4 omillar qolgan omillar bilan multikolleniarlik hosil qiladi. $F_5 > F_{\text{tabl}}$ omil qolgan omillar bilan multikolleniarlik hosil qilmaydi.

Ikki omil orasidagi zichlik funksiyani xarakterlovchi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlarini quyidagi munosabat yordamida hisoblaymiz.

$$r_{jk} = \frac{-c_{jk}}{\sqrt{c_{jj} \cdot c_{kk}}}$$

$$r = \begin{pmatrix} -1 & -0,77575 & -0,0671 & 0,838667 & -0,07808 \\ -0,77575 & -1 & -0,25997 & 0,961678 & 0,194182 \\ -0,0671 & -0,25997 & -1 & 0,434187 & 0,922484 \\ 0,838667 & 0,961678 & 0,434187 & -1 & -0,33195 \\ -0,07808 & 0,194182 & 0,922484 & -0,33195 & -1 \end{pmatrix}$$

t-test qiymatlarini quyidagi formula bilan hisoblaymiz.

$$t_{kj} = |r_{kj}| \cdot \sqrt{\frac{n - m}{1 - r_{kj}^2}}$$

$$T = \begin{pmatrix} & 15,58507 & 0,539195 & 22,61798 & 0,628446 \\ 15,58507 & & 2,230506 & 102,3399 & 1,614328 \\ 0,539195 & 2,230506 & & 4,280434 & 49,52184 \\ 22,61798 & 102,3399 & 4,280434 & & 2,984446 \\ 0,628446 & 1,614328 & 49,52184 & 2,984446 & \end{pmatrix}$$

Endi erkinlik darajasi 11 bo'lgan va $\alpha=0.05$ qiymatdorlik darajasi bo'lgan t_{tabl} ni qiymatini jadval yordamida topamiz. $t_{tabl} = 2,200985$ yuqoridagi matritsa elementlaridan ko'rinib turibdiki,

Dependent Variable: Y
Method: Least Squares
Date: 12/14/23 Time: 16:43
Sample: 1 13
Included observations: 13

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
C	-9699.580	1668.969	-5.811720	0.0002
X3	0.780568	0.035955	21.70948	0.0000
X5	109.3149	19.64485	5.564555	0.0002
R-squared	0.979989	Mean dependent var		12945.05
Adjusted R-squared	0.975987	S.D. dependent var		673.8344
S.E. of regression	104.4182	Akaike info criterion		12.33386
Sum squared resid	109031.5	Schwarz criterion		12.46423
Log likelihood	-77.17008	Hannan-Quinn criter.		12.30706
F-statistic	244.8651	Durbin-Watson stat		2.339051
Prob(F-statistic)	0.000000			

6-rasm. Chiziqli regressiya tenglamasi Eviews 12 programmali.

$t_{12}, t_{14}, t_{23}, t_{24}, t_{34}, t_{35}, t_{45} > t_{tabl}$ bo'ladi. Demak, X1 omil X2 hamda X4 bilan, X2 omil X3 bilan, X3 omil X4 bilan hamda X4 omil X5 omil bilan multikolleniar bo'ladi.

Yuqoridagi tahlillarga asosan Y aholi bandligiga eng ko'p ta'sir etuvchi omillar sifatida X3 va X5 ni tanlab chiziqli regressiya tenglamasini Eviews 12 orqali tuzamiz (6-rasm).


Demak,

$$Y = -9699.58 + 0.78 \cdot X_3 + 109.31 \cdot X_5 + u$$

Bu yerda u tasodifiy qism va $Y = -9699.58 + 0.78 \cdot X_3 + 109.31 \cdot X_5$ regressiyaning prognoz qismi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki Durbin-Votson soni $d=2.34$ ga teng. Qiymatdorlik darajasi 0.05 bo'lgan holda d_l va d_u qiymatlarni jadvaldan hisoblaymiz $d_l=0.81$ $d_u=1.58$.

$d_u < d < 4 - d_u$ bo'lgani uchun qoldiq avtokorreliatsiyalanmagan. Demak modelda qoldiq avtokorrelyatsiya muammosi yo'q.



7-rasm. Mintaqadagi band aholi soni regression o'zgarishining ekonometrik modeli³⁰

Ekonometrik tahlil iqtisodiy tizimni ularning rasmiy ko'rinishi erksiz va mustaqil omillar o'rtasidagi aloqalarning shakli va turiga qarab yangilanadigan stoxastik tenglamalar asosida tadqiq qilish imkonini beradi.

Mintaqada ish bilan band bo'lganlar soni o'zgarishining ishlab chiqilgan ekonometrik modeli yuqori darajadagi ko'p miqdorli korrelyatsiya va determinatsiyaga ega (tahminan 97,6%) bo'lib, bu modelning sifatli yetarlicha ekanligini ko'rsatadi.

Model adekvat hisoblanadi, bu esa Fisher testining haqiqiy va jadvali qiymatlarini taqqoslash bilan tasdiqlandi. Modelga kiruvchi parametrlar yetarlicha ishonchli va modelning o'zi statistik adekvad bo'ladi.

$$Y = -9699.58 + 0.78 \cdot X_3 + 109.31 \cdot X_5$$

Jami mehnat resurslari X_3 bir birlik o'zgarishiga 780 ta bandlik to'g'ri kelyapti. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi % (X_5) ning bir foiz o'sishiga 109310 ta band aholi qo'shiladi.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi global o'zgarishlarning ro'y berishi natijasida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari paydo bo'ldi. Ular uy mehnati, masofaviy ish bilan bandlik (telebandlar, telekommyuterlar), mobil masofaviy ish bilan bandlik, frilanser, virtual ish bilan bandlik, o'z - o'zini band qilish, aralash ish bilan bandlik kabilardir. Bandlikning ushbu turlari zamonaviy hamda egiluvchan bo'lib, aholi bandligini oshirishi, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish bilan birga aholiga asosiy ishdan tashqari qo'shimcha daromad manbai sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga ish beruvchilar ixtiyoriy ravishda va xohishiga ko'ra xodimlarni ishga yollash imkoniga ega bo'lib, geografik joylashuv va vaqtdagi farq ahamiyat kasb etmaydi. Mehnat resurslarini ilm fanga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish, ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirish va innovatsion xatti-harakatini rag'batlantirish borasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zida namoyon qiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq ish bilan bandlikning innovatsion

³⁰ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

shakllarining kengayishi jumladan, virtual ish joylari, frilansing kabilar tobora ommalashib bormoqda. Integratsiya jarayonlari va globallashtirish, mehnat bozorini axborot bilan ta'minlash, xodimlar mobilligi oshishi va sifat jihatidan yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi ish o'rinlari uchun ishchi kuchi o'rtasida malakali ishchi kuchi ish beruvchilar o'rtasida raqobatning kuchayishini yuzaga keltirmoqda. Natijada, mehnat vazifalarining taqsimlanishi yuzaga kelmoqda. An'anaviy ish joyi xususiyatlarida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Umumjahon tendensiyasiga mos ravishda mamlakatimizda ham innovatsion iqtisodiyotga mos mehnat bozorining rivojlanish jarayoni shakllanmoqda. Mazkur jarayon mehnat bozorida ish bilan innovatsion bandlik shakllari va turlarini joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy, institutsional asoslarini takomillashtirish va rag'batlantirishning o'ziga xos mexanizmini shakllantirishni talab etadi.

Mintaqalardagi ish bilan bandlikning innovatsion salohiyati oshishi, amaldagi ishlab chiqarish salohiyatining texnik va texnologik yangilanishini hamda yuqori texnologiyali faoliyat turlari rivojlanishining jadallashgan sur'atlarini ta'minlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarishning yuqori darajasiga erishish, uning tarmoq va hududiy tarkibini takomillashtirish, sanoat sohasini keskin rivojlantirish hisobiga mintaqa iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishni oshirish, bandlikni ta'minlash, aholi turmush darajasi, sifatini yanada yaxshilash, ichki hamda chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali sanoat salohiyatini oshirish, ichki va tashqi (jahon) bozorlarda mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligiga erishish mumkin.

XULOSA

1. Hududlarni kompleks va barqaror rivojlantirishda aholi bandligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hududdagi iqtisodiy o'sish va aholi bandligi o'rtasida o'zaro uzviy bog'lanishning yuqori darajasi ta'minlansa, hudud iqtisodiy taraqqiyot sur'atlari jadallashadi. Aksincha, bu muhim ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchsiz bo'lsa, mintaqa taraqqiyotida qator muammolarni keltirib chiqaradi.

2. Hudud aholisining ish bilan bandlik darajasi mintaqa mehnat bozori samaradorligini anglatadi.

3. Bandlikni hududiy tartibga solish hududlar rivojlanishining ko'plab o'ziga xos jihatlarini hisobga olishni va ular asosida aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqarishni taqozo etadi.

4. Respublika hududlarida bandlikning tarmoq tarkibi tahlil qilinganda raqobatdagi ustunliklar Samarqand, Xorazm viloyatlari (Andijon viloyati bilan birga) mashinasozlik sanoatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatining (Buxoro, Qashqadaryo va Farg'ona viloyatlari bilan birga) yoqilg'i sanoatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax viloyatlarida (Navoiy, Surxondaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlari bilan birga) qurilish materiallari sanoatida yaratilganligini ko'rish mumkin.

5. Aholining joylashuv darajasi ham uning bandligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Respublika hududlaridagi aholi zichligi o'rtasidagi tafovut ularni guruhlariga ajratib o'rganish imkonini beradi. Natijada aholi zichligi hududiy jihatidan o'rganilib o'rganish obekti bo'lgan Samarqand viloyati 4-guruhga mos kelishi aniqlandi.

6. Samarqand viloyatining Paxtachi, Urgut tumanlari aholi soni bo'yicha yuqori o'rinlarni egallaydi. Shuningdek, mazkur tumanlar viloyatdagi eng yuqori manfiy migratsion saldo ko'rsatkichiga ega hisoblanadi. Ushbu tumalarni to'liq erkin iqtisodiy zonaga aylantirish, viloyatning barcha hududlarida ushbu iqtisodiy zonaning filiallarini tashkil etish taklif etiladi. Bu hududning mehnat resurslarini iqtisodiyot soha va tarmoqlari bo'yicha samarali bandligini oshiradi.

7. Aholi bandligini oshirishiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili qilinib, mintaqaning 2024–2028 yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Natijada aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha investitsiya hajmi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarining aholi bandligiga ta'siri o'rganilib, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha investitsiya hajmining 0,78 foizga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bir foizga ortishi mintaqada aholi bandligini 1,09 foizga o'sishiga olib kelishi aniqlangan.

8. Mintaqaning markazdan olis hududlarda, servis markazlarining mavjud emasligi borlarining ham xizmat ko'rsatish turi soddaligi, sifatli xizmat ko'rsatilishi uchun aholi shahar yoki tuman markazlariga kelishga majbur bo'lmoqda. Natijada, aholi uzoq masofani bosib o'tishga to'g'ri keladi, ko'p vaqt yo'qotadi. Sifatli va keng ko'lamli xizmat ko'rsatish va servis markazlarining tashkil etilishi esa hudud rivojlanishi va aholi bandligining oshishiga xizmat qiladi. Albatta iqtisodiyoti va dehqonchiligi rivojlanmagan hududlar aholisining iqtisodiy ahvoli joylarda tegishli korxonalarini qurish imkoniyatini bermaydi. Shu tufayli u yerlarga ham yirik xo'jalik birlashmalarining mablag'larini, banklarning kreditlarini va xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasiga alohida ahamiyat qaratish lozim.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ LIST OF PUBLICATION

I bo'lim (I часть; Part I)

1. Umarova G.T. Ishchi kuchi migratsiyasi: holatlar, o'zgarishlar, oqibatlar // Jamiyat va boshqaruv. Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-iqtisodiy, ma'naviy-tarixiy jurnal, – Toshkent, 2010. № 4 42-43 b. (08.00.00; №8)

2. Umarova G.T. Ekoturizm: Aholi bandligini taminlash asosi sifatida // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborotnomasi. – Nukus, 2020. №1 (46), 36-38 b. (08.00.00; №26)

3. Umarova G.T. Aholi bandligini oshirish yo'nalishlarining nazariy asoslari // Iqtisodiyot va ta'lim jurnali. – Toshkent, 2023. № 5 150-156 b. (08.00.00; №11)

4. Umarova G.T. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholi ish bilan bandligining yangi shakllari va turlarini tashkil etish. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – Toshkent, 2024. №8, 163-169 b. (08.00.00; OAK Rayosatining 23-may 2023-yildagi 083183-son qarori)

5. Umarova G.T. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida mintaqalarda aholi bandligining zamonaviy shakllarini joriy etish. // Innovatsion texnologiyalar. – Qarshi, 2023 №4, 145-149 b. (08.00.00; №30)

6. Umarova G.T. Theoretical approaches to the study of population employment. // Инновации и инвестиции Российская Федерация. Институт проблем рынка РАН, Институт экономики. 2024. №2 Стр. 54-56 (08.00.00; № 11)

7. Umarova G.T. Employment as a concept and as an economic category. // Экономика и предпринимательство. Российская Федерация. Министерство образования и науки Российской Федерации № 11 (172), 2024 г. Volume 18 Number 11, ISSN 1999-2300 С.527-529. (08.00.00; №29)

8. Umarova G.T. Tourism opportunities in Uzbekistan and its role in increasing employment. // Материалы VII Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы социально-трудовых отношений», посвященной 60-летию основания Института социально-экономических исследований ДФИЦ РАН – Махачкала. 2019. Стр. 366-367.

9. Umarova G.T. Concepts and views on population employment. // Новая наука: история становления, современное состояние, перспективы развития. – Казань. 2024. Стр.127-130

10. Umarova G.T. Aholi bandligi zamonaviy shakllarining mintaqa innovatsion salohiyatini oshirishdagi ahamiyati. // “O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash muammolari: nazariya, amaliyot va strategiya” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to‘plami.–Toshkent, 2023. 855-857 b.

11. Umarova G.T. Aholi bandligining mintaqaviy xususiyatlari va tarmoq tarkibi tahlili. // Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari to‘plami. – Termiz, 2024. 153-156 b.

II bo‘lim (II часть; Part II)

1. Umarova G.T. O‘zbekistonda aholi bandligining gender jihatlarini // O‘zbekiston geografiya jamiyati axboroti. – Toshkent, 2016. №4 101-104 b (11.00.00; №6).

2. Umarov G.T. Tourism opportunities in Uzbekistan and its importance in increasing employment // Символ науки 2018. №7 Стр. 95-97

3. Umarova G.T. Ismoilova G., Nabiyeva F., Rahmatullayeva M. Macroeconomic Development And Factors Affecting On it // International journal of Scientific & Technology Research (IJSTR) Volume 9 Issue 03.03.2020

4. Umarova G.T. Zamonaviy iqtisodiyotning tabiiy sektorini aks ettiruvchi uy xo‘jaligi aholi bandligini ta‘minlovchi muhim omil //Innovations in texnology and science education 2023. №5 (305) VOL.2. ISSUE 10. ISSN 2181-371X, SJIF (2023)-5,305 1134-1144 b. (ОАК Rayosatining 1665-sonli Guvohnomasi)

5. Umarova G.T. O‘zbekiston mintaqalaridagi demografik vaziyat va uning mehnat bozoriga ta‘siri // Учёный XXI века. 2023. №5 1 (96). Стр. 37-43. Международный научны журнал ISSN 2410-3586

6. Umarova G.T. O‘zbekistonda bandlik va migratsion jarayonlarning demografik hususiyatlari. // “Социально-демографические процессе в современном Узбекистане”. Материалы Республиканской научно-практической конференции. – Тошкент, 2009. Стр. 328-330

7. Umarova G.T. Mintaqa aholisi bandligini oshirishda sanoat innovatsion salohiyatining ahamiyati // “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika 19-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2020. 27-28 b.

8. Umarova G.T. O‘zbekiston mintaqalaridagi demografik vaziyat va uning mehnat bozoriga ta’siri. // “Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda demografik omillarning o‘rni” mavzusiidagi respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi. – Toshkent, 2024. 302-306 b.